

Ommaviy oferta - inPAY.uz

1. Umumiy ma'lumotlar

Ushbu shartnoma "OCHILBOYEV NURILLO NODIRJON O'G'LI" YaTT

INN: 641025183

Bank: TBC Bank



H/r: 2021 8000 0073 2179 7002 va foydalanuvchi o'rtasida tuziladi.

Shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonunlariga hamda umummilliy va xalqaro to'lov tizimlari shu jumladan YooKassa talablari asosida yuritiladi.

1. Hamkorlikni boshlash talablari

1.1 inPAY.uz web sayt, telegram bot va boshqa loyihalarimizdan ro'yxatdan o'tgan har qanday shaxs ushbu shartnomaga rozilik bildirganini anglatadi.

1.2 Ushbu shartnoma xizmat ko'rsatuvchining bir tomonlama qaroriga asosan bekor qilinishi mumkin.

1.3 Xizmat ko'rsatuvchi shartnomaning bekor qilinish sababini maxfiy saqlash huquqiga ega.

2. Taqiqlangan materiallar bilan ishlash

- O'zbekiston hududida ishlatilishi taqiqlangan barcha mahsulotlardan foydalanish taqiqlanadi.
- Pornografik materiallar yaratish, qayta ishlash va tarqatish man etiladi.
- Teroristik ma'lumotlar yaratish va tarqatish taqiqlanadi.
- Bukmekar, moliyaviy piramida, pul yuvish loyihalari qat'iyan man etiladi.
- Foydalanuvchi ushbu taqiqlangan ma'lumotlardan foydalanganda shartnoma xizmat ko'rsatuvchi tomonidan bekor qilinadi.

3. Xizmat ko'rsatuvchining majburiyatlari

3.1 Onlayn to'lovlarni amalga oshirishni o'z bo'yniga oladi.

3.2 Har qanday yangilanish haqida foydalanuvchilarga xabar beradi. Yangilanishlar inPAY.uz rasmiy sahifalari hamda Telegramdagi rasmiy @inPAYuzbot orqali yetkaziladi.

4. Foydalanuvchining majburiyatlari

4.1 Ushbu shartnoma qoidalariga qat'iy amal qilishga majbur.

4.2 inPAY.uz ma'lumotlaridan foydalanganda saytni manba sifatida ko'rsatish shart.

4.3 inPAY.uz nomidan boshqa joylarda ma'lumot tarqatish taqiqlanadi.

4.4 Xizmatdan istalgan vaqtda voz kechish.

4.5 O'z ma'lumotlarini yangilash va o'chirish.

4.6 Shikoyat va taklif bildirish.

5. Foydalanuvchilar bilishi kerak bo'lgan talablar

5.1 Ushbu shartnoma istalgan vaqtda xizmat ko'rsatuvchi tomonidan o'zgartirilishi yoki qo'shimcha kiritilishi mumkin.

5.2 Yangilangan shartnoma inPAY.uz rasmiy saytida e'lon qilinadi.

6. To'lov uchun asosiy talablar

6.1 Umumiy qoidalar

Hamkor platformadan foydalanish orqali ushbu shartnomaga rozilik bildiradi.

6.2 Tomonlarning majburiyatlari

inPAY.uz – xizmatlarni sifatli ko'rsatish va qonuniy to'lovlarni amalga oshirish. Hamkor – faqat haqiqiy va qonuniy ma'lumotlarni taqdim etish.

6.3 Hujjatlarni taqdim etish

Hamkor hujjatlarni platforma orqali yuklashga majbur. Barcha hujjatlar inPAY.uz ma'muriyati tomonidan tekshiriladi.

6.4 Qonuniy mas'uliyat

Soxta yoki noqonuniy ma'lumotlar taqdim etilsa, shartnoma bekor qilinadi va qonuniy choralar ko'riladi.

6.5 Shartnomani o'zgartirish

inPAY.uz istalgan vaqtda shartnomaga o'zgartirish kiritish huquqiga ega. Yangilangan shartlar e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6.6 Pul yechish va to'lov

Hamkor platformadan pul yechish komissiyasi har bir to'lov uchun 5% deb belgilangan. Bu shartnomadagi komissiya foizi kelajakda ma'lum bir shartlar asosida pasaytirilishi yoki qo'shimcha takliflar bilan qimmatlashishi mumkin.

6.7 Komissiya

Har bir yechib olish uchun komissiya 5% miqdorida belgilanadi.

6.8 REFUND tizimi

To'lov bekor qilingan yoki noto'g'ri amalga oshirilgan holatda, foydalanuvchi REFUND (pulni qaytarish) so'rashi mumkin. Refund muddati 5–7 ish kunini tashkil qiladi. Pul faqat foydalanuvchining o'z hisobiga qaytariladi.

7. Maxfiylik siyosati

Biz foydalanuvchilardan qanday ma'lumotlarni olamiz ?

Biz bilan hamkorlik qilayotgan foydalanuvchilarimizdan biz asosan email, ism, telegram ID ma'lumotlarini qabul qilamiz. Ushbu ma'lumotlar bizning xizmatlarimizni foydalanuvchilarga yetkazish va ularning ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlash uchun talab qilinadi.

Ma'lumotlar uchinchi shaxslarga beriladimi ?

Yo'q. Biz hech qanday ma'lumotlarni uchinchi shaxslar bilan baham ko'rmaymiz. Bizning asosiy qoidalarga ko'ra foydalanuvchilar ma'lumotlari maxfiy tarzda saqlanadi.

Foydalanuvchidan boshqa ma'lumotlar talab qilinishi mumkinmi ?

Ha, biz loyihalarimizni rivojlantirish davrida foydalanuvchilardan yangi ma'lumotlarni talab qilishimiz mumkin. Ushbu ma'lumotlar foydalanuvchi ogohlantirilgan holda qabul qilinadi. Ba'zi vaziyatlarda buyurtmalarni boshqarishda foydalanuvchining shaxsini tasdiqlaydigan hujjatlar ham talab qilinishi mumkin. Ushbu ma'lumotlar xizmat ko'rsatuvchi tomonidan har qanday holatda ham maxfiy tarzda saqlanadi.

Foydalanuvchilar ma'lumotlarini o'chirishi mumkinmi ?

Ha. Foydalanuvchilar istalgan vaqtda o'z ma'lumotlarini to'liq o'chirishni so'rab ariza yozishlari mumkin. Buning uchun @inspire_wallet yoki @merchants_uz Telegram yordam guruhiga o'chirilishi kerak bo'lgan hisobga bog'langan Telegram orqali xabar yuborishlari yetarli. Ma'lumotlar 3 ish kuni davomida o'chiriladi va natija foydalanuvchi profiliga xabar yuboriladi.

Foydalanuvchi ma'lumotlari

Foydalanuvchi ushbu shartnomaga rozilik bildirgan holda o'z ma'lumotlarini qayta ishlashga ruxsat beradi. inPAY.uz saytida cookies va loglar ishlatiladi, ular xizmat sifatini oshirish maqsadida qo'llanadi.

O'chirilgan ma'lumotlarni tiklash mumkinmi ?

Yo'q. Biz o'chirilgan ma'lumotlar uchun javob bermaymiz va ushbu ma'lumotlarni tiklash imkoniyati mavjud emas.

8. Biz bilan bog'lanish

Agar savol, taklif yoki muammo bo'lsa, quyidagi usullar orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin:

- Xizmat ko'rsatuvchi: "OCHILBOYEV NURILLO NODIRJON O'G'LI" YaTT
- STIR: 52802046980020
- Bank: "TBC Bank"
- Hisob raqam: 2021 8000 0073 2179 7002

- Email: ochilboyevnurillo@ya.ru
- Telefon: +998 33 571-77-17
- Manzil: Toshkent sh., Olmazor tumani, Shifokorlar shaharchasi

So'ngi yangilanish: 09.09.2025 22:00 UZB